



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида**

**тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

**МУНДАРИЖА:**

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>Саидахроп Саидахмедович Фуломов, Мамаюнус Қаршибоевич Пардаев, Мунаввархон Хаётовна Мухитдинова, Дилшод Субонкулович Пардаев</b> Таълим сифати ва самарадорлигини оширишга қаратилган сунъий интеллектдан Янги Ўзбекистонни шакллантиришда фойдаланиш имкониятлари	5
<b>Умар Худайбердиев</b> Ўзаро манфаатли ҳамкорлик – иқтисодий ривожланишнинг муҳим омили	11
<b>Соҳибназар Каримов</b> “Авесто” жамият тараққиётининг иқтисодий мезонлари ҳақида	14
<b>РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Abdumalik Bektemirov</b> Яшил иқтисодиёт шароитида инсон капитални ривожлантириш: стратегик ёндашувлар ва барқарор ўсиш омиллари	19
<b>Fazilat Esirgarpovna Jomonqulova, Nodir Rasulovich Zaynalov, Shohrux Djurabekovich Abdurasulov</b> Korxonaning ERP axborot tizimini yaratishda xavfsizlik elementlari haqida	22
<b>Мохигул Эркиновна Ахтамова</b> Управление информационно-экономических систем цифровизации бизнеса и перспективы её развития в Республике Узбекистан	26
<b>Abdumalik Bektemirov, Bekzod Muxiddin o‘g‘li Abduvaliyev</b> Qurilishda investitsion va innovatsion faollikni oshirishning dolzarb masalalari	31
<b>Қаюм Ҳамраевич Собиров</b> Табиий қор-ёмғир суви ресурсидан оқилона фойдаланиш орқали мамлакатни сув танқислигидан сақлаб қолиш омиллари	34
<b>Ashur Ali Rustam o‘g‘li Latipov, Abdulxofiz Jamshid o‘g‘li Hamrayev</b> Sun‘iy intellekt yordamida xodimlarning mehnat samaradorligini monitoring qilish	42
<b>Дилрабо Шермоновна Тухтамишева</b> Рақамли технологиялар ёрдамида таълим муассасаларида ўқув сифатини юксалтириш йўналишлари	46
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Рузибой Нормакматов, Уктам Абдуғани ўғли Абдурайимов</b> Озиқ-овқат маҳсулотларида кофеин миқдори, аҳамияти ҳамда хусусиятлари	51
<b>Фарида Абдухалимовна Ахмеджанова</b> Структурные особенности тканей как фактор формирования потребительских свойств текстильных изделий	54
<b>Jamshidjon Sadullaevich Urazov</b> Improving economic partnerships in the dairy value chain	59
<b>Ruziboy Normaxmatov, Akram Gafurov, Oqila Satimbayeva,</b> Xurmo – makro va mikroelementlarga boy mujizaviy mevadir	62
<b>ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ</b>	
<b>Rustam Tohir o‘g‘li Murodov, Pхom Achilovich Usmonov</b> Qurilish obyektlarini loyihalashtirish jarayonining xususiyatlari	65
<b>ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Обид Мамаюнусович Пардаев</b> Коммунал хизматлар самарадорлигини оширишга таъсир этувчи омиллар ва уларни аниқлаш йўллари	69

# ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ

Abdumalik Bektemirov – SamISI “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrası mudiri, i.f.d., professor

## ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ: СТРАТЕГИК ЁНДАШУВЛАР ВА БАРҚАРОР ҶСИШ ОМИЛЛАРИ

**Annotatsiya.** Maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari tahlil qilingan. Yashil iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavf-xatarni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash orqali barqaror o‘shirishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan. O‘zbekiston misolida inson kapitali rivojlanishi, ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik tizimlari hamda qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi imkoniyatlar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, inson kapitali, barqaror rivojlanish, ekologik innovatsiyalar, ta‘lim tizimi, kasbiy tayyorgarlik, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik kompetensiyalar, mehnat bozori.

Jahon iqtisodiyotida so‘nggi yillarda kuzatilayotgan global iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslar tanqisligi va ekologik xavf-xatarlarning kuchayishi mamlakatlar oldiga iqtisodiy o‘shirishning yangi modellarini ishlab chiqish zaruratini qo‘ymoqda. Ushbu sharoitda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi barqaror rivojlanishni ta‘minlashning muhim strategik yo‘nalishi sifatida shakllanmoqda. Yashil iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o‘shirishga erishishni nazarda tutadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida inson kapitali hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish va “yashil” kasblarni shakllantirish yuqori malakali, ekologik tafakkurga ega va zamonaviy bilimlarga tayangan inson resurslarini talab etadi. Shu bois inson kapitalini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashning ham asosiy sharti hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida inson kapitalini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, resurs tejamkor texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish bo‘yicha strategik vazifalar belgilangan bo‘lib, ularni samarali amalga oshirish inson kapitali sifatiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, ta‘lim tizimini “yashil” kompetensiyalar asosida modernizatsiya qilish, mehnat bozorini ekologik talablarga moslashtirish va umrbod ta‘lim mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning strategik yondashuvlari va uning barqaror iqtisodiy o‘shirishga ta‘sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalani kompleks tadqiq etish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi. Yuqorida bayon qilingan fikr va mulohazalar mazkur maqola mavzusining dolzarbligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yashil iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish masalalari so‘nggi yillarda xalqaro ilmiy tadqiqotlar va strategik hujjatlarda ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlarda yashil iqtisodiyot iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga inson salomatligi, ta‘lim sifatini yaxshilash va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlashga xizmat qilishi ta‘kidlangan [2]. Jahon banki tadqiqotlarida esa inson kapitali darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda ekologik innovatsiyalar va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish jarayonlari samarali kechishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [3].

Inson kapitali nazariyasining fundamental asoslari T.Shuls va G.Bekker ishlarida yoritilgan bo‘lib, ular ta‘lim, sog‘liqni saqlash va kasbiy ko‘nikmalarni iqtisodiy o‘shirishning asosiy manbasi sifatida baholagan [4; 5]. Keyinchalik P.Romer va R.Lukas tomonidan ishlab chiqilgan

endogen iqtisodiy o‘shish modellarida bilim va innovatsiyalar barqaror iqtisodiy o‘shishning hal qiluvchi omili ekanini isbotlangan [6]. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu nazariy yondashuvlar yashil iqtisodiyot sharoitiga moslashtirilib, inson kapitali ekologik barqarorlikni ta’minlovchi asosiy resurs sifatida talqin etilmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) hisobotlarida “Yashil ish o‘rinlari”ni yaratish va mehnat bozorini ekologik talablarga moslashtirish inson kapitalini qayta tayyorlash va umrbod ta’lim tizimini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatgan [7]. Shuningdek, qator empirik tadqiqotlarda ta’lim tizimida ekologik kompetensiyalarni shakllantirish qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik innovatsiyalar sohasidagi o‘shishni rag‘batlantirishi aniqlangan [8].

Mahalliy tadqiqotlarda barqaror rivojlanish va innovatsion iqtisodiyot masalalari keng yoritilgan bo‘lsa-da, inson kapitalini aynan yashil iqtisodiyot talablari asosida strategik rivojlantirish masalasi yetarlicha kompleks o‘rganilmagan [8]. Ayniqsa, inson kapitalining barqaror iqtisodiy o‘shishga ta’sirini baholash va uning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifa sifatida qolmoqda. Shu jihatdan, mazkur maqola mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotni olib borishda makon va zamon, ilmiy mushohada, induksiya va deduksiya, mantiqiy va iqtisodiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni inson kapitalining sifati va tarkibiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali umumiy milliy boylikning 60–70 foizini tashkil etadi, tabiiy kapital ulushi esa 10–15 foizdan oshmaydi. Bu holat barqaror iqtisodiy o‘shishda bilim, sog‘liq va innovatsion salohiyat hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, OECD mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xizmatlar sohasida band aholining ulushi so‘nggi o‘n yilda barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti baholashlariga ko‘ra, yashil iqtisodiyotga o‘tish natijasida 2030 yilga qadar jahonda o‘nlab million yangi “yashil ish o‘rinlari” yaratilishi mumkin. Biroq ushbu ish o‘rinlari yuqori malakali, ekologik bilim va raqamli ko‘nikmalarga ega kadrlarni talab qiladi. Demak, ta’lim tizimi va kasbiy tayyorgarlik inson kapitalini yashil iqtisodiyot talablariga mos ravishda shakllantirishda asosiy instrument hisoblanadi.

O‘zbekiston misolida ham inson kapitali rivojlanishi yashil iqtisodiyotga o‘tishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Mamlakatda aholining o‘rtacha yoshi nisbatan yosh bo‘lib, mehnat resurslari salohiyati yuqori hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

**Aholi va inson kapitali (2020–2025)**

Yil	Aholi soni (mln)	Human Capital Index* (0–1)	Bilim va sog‘liq ko‘rsatkichlari*
2020	34,56 млн	0,62	-
2021	35,27 млн	-	-
2022	36,02 млн	-	-
2023	36,80 млн	-	-
2024	37,54 млн	-	-
2025	~38,00 млн	-	-

\*Human Capital Index (2020) - Jahon banki ma’lumoti (0,62), ya’ni bola tug‘ilishida uning kelajakdagi mehnat bo‘limining samaradorlik darajasi bilan baho.

2020–2025 yillarda aholi soni deyarli 3,5 millionga oshdi va bu mehnat resurslari zaxirasi va inson kapitalining potensialini kengaytiradi. O‘zbekistonda 2020-yilda Inson kapitali indeksi (Human Capital Index) ko‘rsatkichi 0,62 bo‘lgan, bu o‘rtacha sifatni anglatadi va bilim/sog‘liq sohalaridagi imkoniyatlar yaxshilanishi zarurligini ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval

**O‘zbekistonning inson kapitali va global innovatsiyalar indeksi bo‘yicha xalqaro ko‘rsatkichlari**

Indikator	O‘zbekiston (Holat)	Izoh
Human Capital Index (2020)	0,62	Bolalarning 18 yoshigacha bilim va sog‘liq holati bilan bog‘liq
Global innovatsiyalar Indeksi 2025 – Inson kapitali va tadqiqot	81	O‘zbekistonning innovatsiya va inson kapitali sohasidagi o‘rta darajasi.

Mamlakatimizda innovatsiya va inson kapitalida yildan-yilga o‘shish surati kuzatilmoqda, lekin ekologik, bilim va ilm-tadqiqot sohaslarida yanada investitsiya talab qilinadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan uyg‘unlashib bormoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyot sektoridagi strategiyalar inson kapitalini rivojlantirishga ijobiy ta‘sir qilishda muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, 3-jadval ma‘lumotlari yashil energetika va iqtisodiy transformatsiya uyg‘unligini ko‘rsatadi. 3-jadval ma‘lumotlaridan ma‘lum bo‘ladiki, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvati sezilarli darajada o‘shib bormoqda. Bu iqtisodiy sektorda ekolog, energiya injeneri, QTE tizimi operatorlari va boshqa “yashil” mutaxassisliklar kabi yangi bilim va kasblarni talab qiladi.

3-jadval

**Tabiiy resurslar va yashil energiya (2020-2030)**

Yil	Qayta tiklanuvchi energiya (QTE) quvvati (MW)**	Loyiha maqsadlari
2023	2 668 MW	Xususiy va davlat dastaklari bilan RESlar qurilishi davom etmoqda
2030 (maqsad)	~20 000 MW	Umumiy energiya balansda QTE quvvati ulushini 40–54 % gacha yetkazish

Inson kapitalining sotsial va institutsional jihatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-noyabrda imzolangan “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni inson kapitalining biologik va ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan muhim institutsional hujjat hisoblanadi. Ushbu farmon doirasida 2025–2026-yillarga mo‘ljallangan milliy dastur inson kapitali sifatini saqlash va uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi[1].

So‘nggi yillarda ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohaslariga yo‘naltirilayotgan davlat xarajatlarining oshishi inson kapitalini sifat jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi va ekologik innovatsiyalarga qaratilgan loyihalar sonining ortishi mehnat bozorida yangi talab va kompetensiyalarni shakllantirmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik tizimlarini ekologik talablarga moslashtirish va inson kapitali samaradorligini baholashni takomillashtirish zarurligi saqlanmoqda. Bu holat inson kapitalining iqtisodiy o‘shish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka qo‘shayotgan hissasini yanada oshirish imkonini beradigan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma‘lumotlar yashil iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni berishga asos bo‘ladi:

1. “Yashil mutaxassislarni tayyorlashdagi ta‘lim dasturlarida “yashil” ko‘nikmalar ulushini oshirish.

2. Kasbiy qayta tayyorlash tizimini ekologik talablarga moslashtirish.

3. Inson kapitali samaradorligini baholash indikatorlarini takomillashtirish.

Ushbu taklif va tavsiyalar inson kapitalining iqtisodiy o‘shish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka qo‘shayotgan hissasini yanada oshirish imkonini beradi.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 7 noyabrda “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni
2. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi: United Nations Environment Programme, 2011.
3. World Bank. The Changing Wealth of Nations: Measuring Sustainable Development in the New Millennium. – Washington, DC: World Bank, 2018.
4. Schultz T.W. Investment in Human Capital. – New York: Free Press, 1971.
5. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
6. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. 71–102.
7. International Labour Organization. Green Jobs: Towards Decent Work in a Sustainable, Low-Carbon World. – Geneva: ILO, 2018.
8. OECD. Green Growth Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2017.
9. Abdullayev A.A. Barqaror iqtisodiy rivojlanish va innovatsion omillar. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.

<p><b>А.Бектемиров</b></p> <p><b>Развитие человеческого капитала в условиях «зеленой» экономики: стратегические подходы и факторы устойчивого роста</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье анализируются стратегические направления развития человеческого капитала в условиях зеленой экономики. Показано, что зеленая экономика способствует устойчивому росту за счет эффективного использования ресурсов, снижения экологических рисков и обеспечения социального благополучия. На примере Узбекистана анализируются развитие человеческого капитала, системы образования и профессиональной подготовки, а также возможности в области возобновляемой энергетики.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> зеленая экономика, человеческий капитал, устойчивое развитие, экологические инновации, система образования, профессиональная подготовка, возобновляемая энергия, экологические компетенции, рынок труда.</p>	<p><b>A.Bektemirov</b></p> <p><b>Human capital development in a green economy: strategic approaches and factors of sustainable growth</b></p> <p><b>Abstract.</b> The article analyzes strategic directions for human capital development in a green economy. It is shown that a green economy contributes to sustainable growth through efficient use of resources, reduction of environmental risks and ensuring social well-being. The case of Uzbekistan analyzes human capital development, education and vocational training systems, and opportunities in the field of renewable energy.</p> <p><b>Keywords:</b> green economy, human capital, sustainable development, ecological innovations, education system, vocational training, renewable energy, ecological competencies, labor market.</p>
---	--

**Fazilat Esirgapovna Jomonqulova** – SamISI, “Axborot texnologiyalari” kafedrasida dotsenti  
**Nodir Rasulovich Zaynalov** – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali

“Axborot xavfsizligi” kafedrasida mudiri

**Shohrux Djurabekovich Abdurasulov** – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU magistranti

**KORXONANING ERP AXBOROT TIZIMINI YARATISHDA XAVFSIZLIK ELEMENTLARI HAQIDA**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxonalarda “Enterprise Resource Plan”ning axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish jarayonida xavfsizlik elementlarini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni o‘rganilgan. Maqolada “Enterprise Resource Plan” tizimlarining ma’lumotlar xavfsizligi foydalanuvchilar autentifikatsiyasi, ruxsatsiz kirishdan himoya qilish va tizimning ichki va tashqi tahdidlarga qarshi barqarorligini ta’minlash masalalari tahlil qilingan. Xususan, zamonaviy shifrlash algoritmlari, rolga asoslangan kirishni boshqarish, tarmoq xavfsizligi protokollari va ma’lumotlarni himoya qilishning huquqiy jihatlari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ERP (Enterprise Resource Plan) tizimi, xavfsizlik, kirish nazorati, kibertahdid, ma’lumotlar himoyasi.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.